

Urganch davlat universiteti bilan integratsiyalashuv

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti "Qishloq xo'jaligi mashinalari" kafedrasini mudiri t.f.d. K.D.Astanaqulov viloyatlardagi oliy ta'lim muassasalari bilan integratsiyani yanada mustahkamlash maqsadida Urganch davlat universitetida bo'lib qaytdi. K.D.Astanaqulov Urganch davlat universitetiga tashrifi davomida Texnika fakultetida bo'lib, professor-o'qituvchilar va talabalar bilan uchrashuv o'tkazdi. Uchrashuvda o'quv-uslubiy va ilmiy-tadqiqot ishlarida o'zaro hamkorlik masalalari kelishib olindi. "Yer usti transport tizimlari" ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabalariga "Qishloq xo'jaligi mashinalari" fanidan ma'ruza o'qildi, "Ichki yonuv dvigatellari" fanidan kurs loyihalari himoyasida qatnashildi. Urganch davlat universiteti o'qituvchilari bilan fermer xo'jaliklarida bo'lib, sholi yetishtirish va yig'ishtirishdagi muammolar va ularning yechimlari bo'yicha o'zaro fikr almashildi.



"Qishloq xo'jaligi mashinalari" kafedrasini mudiri K.D.Astanaqulov axboroti

Institut matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov